

03-01/6-112
31.10.2023

“TASDIQLAYMAN”
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o‘zgarishi vaziri o‘rinbosari

J. Kazbekov
“31.10.2023-yil”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 2-maydagi 02-PA 1-7119-son topshirig‘iga asosan
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-2024-yillarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga
oshirishga qaratilgan chora-tadbirlari doirasida

YOSHLAR BANDLIGI DASTUR1

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddatlar	Mas’ul iirochilar
1.	Yoshlarni bandligini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi ta’lim shaklining bitiruvchi kursida (4-bosqich) o‘qiyotgan qobiliyatli yoshlarni vazirlik tizim tashkilotlarida stajirovka o‘tashlarini tashkil etish va keyinchalik zahiraga kiritish.	<p>1. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida shtat birliklarining o‘n foizdan kam bo‘lmagan miqdorida stajyorlarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlar (<i>moddiy texnika</i>) yaratish.</p> <p>2. Dastur doirasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi integratsiya qiladigan OTMlar ro‘yxatini shakllantirish hamda ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;</p> <p>3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik, davlat tili va AKT bo‘yicha test savollari bazasini yaratish.</p> <p>4. Rasmiy veb-saytlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda “Yoshlar bandligi dasturi” doirasida tanlov e’lon qilish hamda OTMlarda</p>	2023-yil 2-yarim yillik, 2024-yil	Inson resurslarini boshqarish bo‘limi (Ashirova), Ekologik ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo‘limi (Temirov)

	<p>targ‘ibotini tashkil qilish.</p> <p>5. “Yoshlar bandligi dasturi” bo‘yicha e’lon qilingan tanlov asosida kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish.</p> <p>6. Nomzodlarning bilim darajasini aniqlash uchun test sinovidan o‘tkazish.</p> <p>7. Test bosqichidan muvaffaqqiyatli (<i>71 foizdan yuqori</i>) o‘tgan bitiruvchilarni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida tashkil etilgan maxsus komissiya tomonidan suhbatdan o‘tkazish.</p> <p>8. Suhbatdan muvoffaqqiyatli o‘tgan nomzodlarni stajirovkaga jalb etish, ustoz-menter biriktirish, stajirovka o‘tash shartnomasi va shaxsiy rivojlanish rejasini imzolash.</p> <p>9. Ustoz-mentor tomonidan stajyor faoliyatini kuzatib borish asosida uning bilimi, ko‘nikmalari va amaliy tajribasi oshishiga ko‘maklashish.</p> <p>10. Stajirovka faoliyati yakunlari bo‘yicha stajyor taqdimotini baholash va muvaffaqiyatli tamomlagan stajyorlarga sertifikat berish.</p> <p>11. Sertifikatga ega bitiruvchilar orasidan tanlov (<i>suhbat</i>) asosida ishga qabul qilish.</p>	
--	--	--

(Nurmatov)  (Kemirov)  (Ashirova) 